

MUNZIM — BUXORO JADIDLARIDAN BIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro va Turkiston hududida faoliyat yuritgan jadid ziyolisi, ma'rifatparvar shoir va jamoat arbobi Abdulvohid Burhonov (Munzim)ning hayoti, ijodiy merosi hamda jadidchilik harakatidagi o'rni tahlil etiladi. Tadqiqotda Munzimning she'riy ijodi, ma'rifiy-targ'ibotchi faoliyati, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi xizmatlari va jadid adabiy muhitidagi roli yoritiladi. Shuningdek, uning Sadriddin Ayniy va Abdurauf Fitrat kabi yirik jadid arboblari bilan umumiy va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada Sovet va postsovet davrida Munzim faoliyatiga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'rib chiqilib, uning jadid adabiyotidagi o'rni va tarixiy ahamiyati aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Munzim ijodining jadid adabiyotidagi ma'rifiy-targ'ibotchi yo'nalish rivojida muhim bo'g'in ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Abdulvohid Burhonov, Munzim, jadidchilik harakati, Buxoro jadidlari, jadid adabiyoti, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, ijtimoiy uyg'onish, Turkiston adabiy muhiti.

МУНЗИМ-ОДИН ИЗ ДЖАДИДОВ БУХАРЫ

Аннотация. В статье анализируются жизнь, творческое наследие и роль в движении джадидизма Абдулвохида Бурхонова (Мунзима), интеллектуала-джадида, просвещенного поэта и общественного деятеля, который был активен на территории Бухары и Туркестана в начале XX века. Исследование проливает свет на поэтическое творчество Мунзима, его просветительскую и пропагандистскую деятельность, его заслуги в создании школ «Нового метода» и его роль в литературной среде джадидов. Кроме того, проводится сравнительный анализ его сходств и различий с такими крупными деятелями джадидизма, как Садриддин Айний и Абдурауф Фитрат. В статье рассматриваются научные исследования творчества Мунзима, проведенные в советский и постсоветский периоды, и устанавливается его место и историческое значение в литературном движении джадидов. Результаты исследования показывают, что творчество Мунзима было важным звеном в развитии просветительского и пропагандистского направления в литературе Джадидов.

Ключевые слова: Абдулвохид Бурхонов, Мунзим, движение джадидов, бухарские джадиды, литература джадидов, просвещение, школы нового метода, социальное пробуждение, литературная среда Туркестана.

MUNZHIM — ONE OF THE BUKHARA JADIDS

Annotation. This article analyzes the life, creative legacy, and role in the Jadidism movement of Abdulvohid Burhonov (Munzim), a Jadid intellectual, enlightened poet, and public figure who was active in the early 20th century in the territories of Bukhara and Turkestan. The study sheds light on Munzim's poetic creativity, his educational and propaganda activities, his contributions to establishing the New Method schools, and his role in the Jadid literary environment. Additionally, the similarities and differences in his work compared to major Jadid figures like Sadriddin Ayniy and Abdurauf Fitrat are analyzed. The article reviews scholarly research on Munzim's activities conducted during the Soviet and post-Soviet periods, establishing his place and historical significance in the Jadid literary movement. The research findings show that Munzim's work was an important link in the development of the enlightenment-propagandist trend in Jadid literature.

Keywords: *Abdulvohid Burhonov, Munzim, the Jadid movement, Bukhara Jadids, Jadid literature, Enlightenment, New Method schools, social awakening, the literary environment of Turkestan.*

Kirish. Abdulvohid Burhonov (taxallusi: Munzim) — XX asr boshlarida Buxoro va Turkiston hududida faol bo'lgan jadid adabiy muhitiga yaqin ijodkor, ma'rifatparvar shoir va ziyoli sifatida tilga olinadi. U asosan she'riyat orqali ijtimoiy ongini uyg'otish, xalqni ma'rifat va yangilanishga chaqirish g'oyalarini ilgari surgan adiblardan biri hisoblanadi.

Abdulvohid Munzim faoliyat yuritgan davr Buxoro amirligi so'nggi yillari, jadidchilik harakatining kuchaygan pallasiga to'g'ri keladi. Bu davrda eski maktab-madrasalar va yangi usul ta'limi o'rtasidagi ziddiyatlar yaqqol namoyon bo'lgan va zimdan kurash ketayotgan edi. Shu sababli Munzim ijodida jaholat va mutaassiblik tanqidi, ilm-ma'rifat targ'ibi, millat taqdiri, uyg'onish, zamon bilan hamnafaslik kabi g'oyalar etakchi bo'lgan.

Manbalar tahliliga ko'ra, Abdulvohid Burhonov Munzim asosan she'rlar yozgan va unga mumtoz adabiy shakllardan foydalangan holda, yangi mazmun kiritishga intilgan. Jadid adabiyotiga xos tarzda ma'rifiy-tanqidiy ruhda ijod qilgan. Uning asarlarida: xalqni ilm olishga, yoshlarni zamonaviy fikrlashga, jamiyatni isloh qilish zaruratiga da'vat etuvchi fikrlar uchraydi.

Abdulvohid Burhonov Munzim faoliyati O'zbekistonda Fitrat, Sadridin Ayniy, Cho'lpon kabi yirik jadidlar darajasida keng o'rganilgan shaxs bo'lmasa-da, Buxoro jadid adabiy muhitining muhim qatlamini tashkil etgan ijodkorlardan biri sifatida baholanadi. U ham ko'plab jadidlar singari siyosiy ta'qiblar, asarlarning to'liq saqlanib qolmaganligi, sovet davrida jadid merosining cheklangan o'rganilishi bilan izohlanadi.

Muhokama va tahlillar. Abdulvohid Burhonov Munzim — XX asr boshlaridagi Turkiston va Buxoro jadid adabiy muhitida faol bo'lgan, she'riy ijod orqali ma'rifat, uyg'onish va ijtimoiy islohot g'oyalarini targ'ib etgan, hali to'liq tadqiq etilmagan ijodkorlardan biridir.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki adabiy-ma'rifiy uyg'onish jarayoni sifatida ham tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu harakat doirasida adabiyot xalqni ma'rifatga, ijtimoiy faollikka va milliy o'zlikni anglashga chorlovchi muhim vositaga aylandi. Ana shunday murakkab va mas'uliyatli davrda faoliyat olib borgan jadid ziyolilaridan biri Abdulvohid Burhonov bo'lib, u adabiy jarayonda Munzim taxallusi bilan tanildi.

Abdulvohid Burhonovning adabiy merosi hajman katta bo'lmasa-da, mazmunan jadid adabiyotining g'oyaviy asoslarini yaqqol aks ettiradi. Uning she'rlari va publitsistik chiqishlari asosan ma'rifatparvarlik, ilmga da'vat, jaholatni fosh etish, ijtimoiy adolatsizlikni tanqid qilish kabi masalalarga bag'ishlangan. Munzim ijodida badiiy-estetik mukammallikdan ko'ra, g'oyaviy-ma'rifiy vazifa ustuvorlik qiladi. Bu jihat uni jadid adabiyotining "o'quvchi ongini uyg'otishga xizmat qilgan" qatlamiga mansub etadi.

Uning she'riyati an'anaviy aruz vaznida yozilgan bo'lib, mumtoz adabiyot shakllaridan voz kechmagan holda, yangi mazmun bilan boyitilgan. Shoir tilida sodda, xalqona ifodalar, nasihat ohangi va didaktik ruh ustun turadi. Bu xususiyatlar Munzim ijodini keng omma, ayniqsa yoshlar va o'quvchilar uchun tushunarli va ta'sirchan qilgan.

Munzimning ijodi dastlabki bosqichda ma'rifiy mavzudagi she'rlar bilan ifodalangan bo'lib, bu asarlar orqali u xalqni zamonning ijtimoiy-siyosiy muammolariga e'tiborli bo'lishga chaqirgan. U jadid adabiyotining asosiy maqsadi — millatning ma'naviy uyg'onishi va modern ta'limni targ'ib qilishga xizmat qiluvchi badiiy yo'nalish ekanligini o'z ijodida jonli ko'rsatgan.

Abdulvohid Burhonovni Sadridin Ayniy bilan qiyoslaganda, ularning umumiy jihati, avvalo, ma'rifatparvarlik g'oyasiga sodiqlikda namoyon bo'ladi. Har ikkala ijodkor ham adabiyot va maorifni jamiyatni isloh qilishning eng muhim vositasi deb bilgan. Ayniy badiiy nasr orqali xalq hayotining real manzaralarini ochib bergan bo'lsa, Munzim she'riy va publitsistik yo'l bilan ijtimoiy ongini uyg'otishga intilgan.

Farqli jihati shundaki, Sadridin Ayniy keyinchalik realist adabiyot asoschilaridan biri sifatida murakkab badiiy obrazlar yaratgan bo'lsa, Munzim ijodida badiiylikdan ko'ra ijtimoiy-

g'oyaviy yo'nalish ustun bo'lib qoladi. Shu bois Munzim ko'proq jadid adabiyotining dastlabki, targ'ibotchi bosqichiga xos ijodkor sifatida baholanadi.

Abdulvohid Burhonov va Abdurauf Fitrat faoliyatini qiyoslash jadidchilik harakatining ichki differensiasiyasini anglashga yordam beradi. Fitrat adabiyot, falsafa va siyosiy tafakkurni uyg'unlashtirgan holda, milliy davlatchilik va madaniy mustaqillik masalalarini nazariy jihatdan chuqur asoslab bergan. Munzim esa ko'proq amaliy ma'rifatchi va tashkilotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Fitrat ijodida badiiy va falsafiy murakkablik, g'arb va sharq tafakkurining sintezi ko'zga tashlansa, Munzim asarlarida aniq, sodda va bevosita ta'sir etishga qaratilgan uslub ustunlik qiladi. Bu holat ularning ijtimoiy vazifalaridagi farq bilan izohlanadi: Fitrat jadidchilikning nazariy asoslarini shakllantirgan bo'lsa, Munzim uni hayotga tatbiq etishga xizmat qilgan.

Munzim — asosan ma'rifiy she'riyat va pedagogik tadbirlar orqali jamiyatni yangilashni yo'lga qo'ygan. U she'r va maqolalarida milliy ongni yuksaltirish, ta'lim sohasini isloh qilish kabi masalalarni ko'taradi.

Sadridin Ayniy — asosan nasr va darsliklar orqali tadrijiy ravishda jadid mafkurasini mustahkamlashga intilgan. Ayniyning adabiy asarlari ko'proq xalq hayotining murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritadi, shuningdek, ta'lim adabiyotini yaratishda ham katta rol o'ynaydi.

Abdurauf Fitrat — jadid mafkurasi asoslarini tizimli ilmiy va publitsistik maqolalar orqali ifodaladi. U faqat adabiyot bilan cheklanmay, falsafa, ijtimoiy nazariya va siyosiy g'oyalarni ham yoritgan, noyob fikriy meros qoldirgan.

Munzimning badiiy tili oddiy va xalqchildir, bu she'riyatni juda keng kitobxonga etkazishga xizmat qiladi. Ayniy nasrida ko'proq ijtimoiy murakkab mavzular, real hayot drammatizmi ko'zga tashlanadi. Fitrat esa tili boy va nazariy strukturaga ega bo'lib, u akademik tafakkur va ilmiy yondashuvni yuzaga qo'yadi. Natijada, uch ijodkor bir xil maqsad — milliy uyg'unlash va madaniy islohotlar yo'lida harakat qilgan bo'lsalar-da, har biri bu yo'lni o'z uslubida va turlicha adabiy vositalar orqali amalga oshirgan.

Abdulvohid Burhonov jadidchilik harakatida faqat ijodkor emas, balki tashkilotchi va siyosiy arbob sifatida ham muhim rol o'ynagan. "Tarbiyai atfol" jamiyati faoliyati, yangi usul maktablarini tashkil etishi, yoshlarni xorijda o'qitishga yo'naltirish tashabbuslari uning jadidchilikni amaliy harakat darajasiga ko'targanini ko'rsatadi. Shu ma'noda Munzim jadid adabiyotini ijtimoiy hayot bilan bog'lab bergan muhim bo'g'in hisoblanadi. Munzim "Tarbiyayi atfol" ("Bolalar tarbiyasi") kabi jamiyatlar tashkil etish orqali o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklar joriy etishga ham hissa qo'shgan.

Uning gazetachilik va noshirlik bilan shug'ullangani, yozma adabiyot orqali jamiyatda ijtimoiy ongi yuksaltirishga intilgani ham jadid adabiy muhitning umumiy maqsadlariga to'g'ri keladi.

XX asr boshida Munzim Buxoroda yangi usuldagi jadid maktabini o'z uyida ochgan bo'lib (1908), shuningdek, yoshlarni o'qishga tayyorlash va ularni tashqi mamlakatlarda tahsil olishga yo'naltirish ishlarini amalga oshirgan. Bu esa uning nafaqat adabiy ijodkor, balki ma'rifatparvar va ta'lim islohotchisi sifatida ham jamiyatda faol rol o'ynaganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Abdulvohid Burhonov jadid adabiyotida ma'rifiy-targ'ibotchi yo'nalishning yorqin vakili sifatida alohida o'rin egallaydi. Uning ijodi Sadridin Ayniy va Abdurauf Fitrat kabi yirik adiblar merosi singari, badiiy jihatdan mukammal bo'lib, ijtimoiy ta'sirchanligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Munzim shaxsiyati va faoliyati jadidchilik harakatining faqat adabiy hodisa emas, balki keng qamrovli ma'naviy-siyosiy uyg'unlash ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

SSSR davrida va keyinchalik Munzim haqidagi tadqiqotlar qay darajada ekanligini o'rganamiz: 1.) Sovet va post-sovet davri tadqiqotlari. Munzimning hayoti va faoliyati SSSR davrida ham ilmiy-tarixiy adabiyotlarda tilga olingan. U Sovet davrining ma'rifatparvar arbobi sifatida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganidan keyingi siyosiy-maorifiy faoliyati bilan ko'p qayd etilgan. 1918–1924 yillar davomida u Markaziy ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari, Xalq maorifi vaziri va sog'liqni saqlash vaziri lavozimlarida ishlagan, Germaniyaga 44 ta talaba

16 yuborish kabi loyihalarni amalga oshirgan — bu oʻz vaqtida Sovet maʼlumotlarida ham qayd etilgan.

Munzimning ishlarini Sadridin Ayniy oʻz asarlarida hurmat bilan tilga olgan. Ayniyning tarixiy va esdalik kitoblarida Munzimning hayoti va jadid harakatidagi roli yoritilgan, bu Sovet davrida shu zamon mualliflari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy qaydlar orasidadir.

2. Tojikiston olimlari va post-sovet tadqiqotlarida: a) S.Sh.Tabarov va Munzimga bagʻishlangan ilmiy ishlar. Tadqiqotlarda Munzimning faoliyati, jumladan taʼlim va maʼrifat tarqatish sohasidagi ishlari Tojikiston ilmiy doiralari tomonidan ham oʻrganilgan. Masalan, Toshkent, Samarqand va Dushanbe markazlarida nashr etilgan ilmiy maqolalarda Munzimning “Munzim–jadidlar harakatining koʻzga koʻringan arbobi” nomli ishlar eʼlon qilingan. Bu ishlar Dushanbeda nashr etilgan boʻlib, Munzimning hayoti va ijod yoʻli hamda jadid adabiyoti kontekstidagi faoliyati yoritilgan.

b) Tojikiston fanlar akademiyasi: Munzimning qarindoshlari orasida Burxonov Olim Raximovich borligi qayd etilgan. U Tojikiston Fanlar Akademiyasida faoliyat olib borgan olim boʻlib, falsafa va ilmiy tadqiqotlar bilan shugʻullangan. Bu Munzimga bogʻliq ilmiy merosning Tojikiston olimlari tomonidan keyingi avlodda ham davom ettirilishiga dalildir.

3. Munzim bilan bogʻliq zamonaviy ilmiy maqolalar:

a) Maqsud Komilovich Beshimovning maqolalari: 2022–2024 yillarda Munzim haqida ilmiy maqolalar chop etilgan. Masalan, “Mirza Abdulvahid Munzim — Buxaro jadidizmi harakatining faol arbobi” nomli maqola xalqaro jurnal *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*da nashr etilgan boʻlib, unda Munzimning jadid harakatidagi roli, jadid maktablarining tashkil etilishi va yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish kabi ishlar tahlil qilingan. Uning “Tarbiyai atfol” jamiyati va Munzim haqida maqolasi” Munzimning jadid maktab tashkiloti va jamiyatdagi maʼrifiy ishlardagi oʻrni keng yoritilgan.

Shuningdek, Munzim, xususan jadid adabiyoti va maʼrifatparvarlik harakati doirasida koʻplab ilmiy-tarixiy izlanishlarda uchraydi. U jamiyatda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishda, maorif va maʼnaviyatni oshirishda markaziy figuradir.

Jadid harakatining tarixiga bagʻishlangan tadqiqotlarda SSSR davrida ham bu harakatning mazmuni va maqsadi qayd etilgan. Bu tadqiqotlarda jadidlar taʼlim-maorifni isloh qilish orqali milliy uygʻonish yoʻlini boshlab berganliklari haqida ilmiy xulosalar keltiriladi.

Munzim va Sadridin Ayniy bilan bogʻliq ilmiy ishlarda oʻzaro aloqalar koʻplab topiladi. Ayniy oʻz asarlarida Munzim haqidagi esdaliklar va tarixiy vaziyatlarni joy-joyida qayd etgan. Bu oʻz navbatida Munzimning SSSR davrida ham tarixchilar tomonidan eʼtirof etilganligini koʻrsatadi.

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, Abdulvohid Burhonov (Munzim) haqida tojik olimlari va SSSR davrida ham izlanishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda u: jadid harakatining markaziy figurasi sifatida tilga olingan; maʼrifatparvarlik va pedagogik ishlarining tarixiy ahamiyati oʻrganilgan; Sadridin Ayniy va boshqa zamondoshlar bilan bogʻliq tarixiy izohlar asosida baholangan; uning ijodining Sovet davri matbuoti va ilmiy adabiyotlarida qayd etilishi ham tasdiqlangan.

SSSR davrida jadid harakati va Munzimning roli haqida ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan. Tojik olimlari jadid mafkurasining Markaziy Osiyodagi tarixi va madaniy taʼsirini oʻrganish jarayonida Munzimning pedagogik va maʼrifatparvar rolining ahamiyatini qayd etishadi. Munzim Buxoro jadid adabiyotining markaziy figurasi sifatida tilga olinadi va uning maktablar ochish, yoshlarni tahsil olishga yuborish, yozma adabiy faoliyatdagi xizmatlari madaniy uygʻonish tarixida muhim bosqich deb baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ayniy S. Esdaliklar. – Toshkent: Fan, 1963.
2. Beshimov M.K. Mirza Abdulvahid Munzim — Buxoro jadidizmi harakatining faol arbobi // *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*. – 2023.